

UDK: 340.132.642

O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA QO‘SHMA SO‘Z VA SO‘Z BIRIKMALARINING MA‘NO MUSHTARAKLASHUVI XUSUSIYATLARI⁸

Jumaniyozov Atabay

Filologiya fanlari nomzodi, professor

Urganch davlat universiteti

atabeyj@yahoo.de*Allaberganova Firuza Ibraximovna*

Tayanch doktorant

Urganch davlat universiteti

firuzaaallaberganova@gmail.com

Orcid ID: 0009-0009-6873-4733

ANNOTATSIYA

KALIT SO‘ZLAR

Mazkur maqolada o‘zbek va ingliz tilshunosligida so‘z birikmalari va qo‘shma so‘zlarning ta‘rifi haqida yangicha fikr-mulohazalar bildirilib, ma‘no mushtaraklashuvi mohiyatiga ham falsafiy, ham lisoniy tomondan nisbat beriladi. Shuningdek, mazkur til birliklari komponentlarining sintaktik ergashish munosabatlariga atrofligicha to‘xtalinadi. O‘zbek tilidagi qo‘shma so‘zlarning ingliz tilidagi muqobil variantlari bilan qiyoslanilib va ushbu tillararo ma‘no mushtaraklashuvi nisbatini tahlil qilishga harakat qilinadi. Ulardagi ma‘no variantdoshlikning xilma-xilligini, shakl va mazmun munosabatlarini tillarning tabiatiga xos xususiyatlari rang-barangligini nazarda tutgan holda ushbu til birliklari guruhlarga ajratib tasniflaniladi. So‘z birikmalari dunyoning barcha tillarida tarixiy-tadrijiy ravishda ma‘nolarida kechgan muayyan semantik o‘zgarishlar natijasida asta-sekin qo‘shma so‘zlarga aylanishgan. So‘z birikmasi sifatida anglashilayotgan ma‘no uchinchi bir narsa va hodisani atab ham ko‘rsata boshlagan. Tarkibdagi ikki (va undan ortiq) so‘z o‘z ma‘nolarini saqlagan (ma‘no ko‘chgan hollarda to‘la o‘zgarib) holda yangi bir predmetni nomlagan. Tillar yashar ekan tilning bu fenomenal hodisasi davom etaveradi. Tilning lug‘at tarkibini yanada boyitadi va so‘z birikmalari qo‘shma so‘zga aylanib barqarorlashadi. Binobarin, tildagi bunday voqeliklar tillar taraqqiyoti va rivojining an‘anasiga aylangan va til ifodasi oshishining ichki imkoniyatlaridan biridir.

Ildiz, element, leksema, til birligi, so‘z birikmasi, qo‘shma so‘z, ta‘rif, tasnif.

Received: December 10, 2024

Accepted: January 18, 2024

Available online: May 2, 2025

⁸ **For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**

Jumaniyozov A., Allaberganova F.I. O‘zbek va ingliz tillarida qo‘shma so‘z va so‘z birikmalarining ma‘no mushtaraklashuvi xususiyatlari. // Komparativistika (Comparative Studies). — 2025. — Vol.2, № 2(6) — B. 100-116.

ОСОБЕННОСТИ СЕМАНТИЧЕСКОГО СБЛИЖЕНИЯ СЛОЖНЫХ СЛОВ И СЛОВСОЧЕТАНИЙ В УЗБЕКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ

Атабай Жуманиязов

кандидат филологических наук, профессор
Ургенчский государственный университет

atabeyj@yahoo.de

Аллаберганова Фируза

докторант

Ургенчский государственный университет

firuzaaallaberganova@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0009-6873-4733>

АННОТАЦИЯ

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

В данной статье приводятся новые взгляды на определение словосочетаний и сложных слов в узбекской и английской лингвистике, анализируется сущность смысловой общности как с философской, так и с лингвистической точки зрения, а также подробно рассматриваются синтаксические отношения компонентов этих языковых единиц. В работе предпринята попытка сопоставить узбекские сложные слова с аналогами в английском языке и проанализировать соотношение этих межъязыковых смысловых общностей. Данные языковые единицы были классифицированы на группы на основе разнообразия семантических вариаций и особенностей, присущих характеру отношений формы и содержания в каждом из двух языков. Во всех языках мира словосочетания постепенно превращались в составные слова в результате определенных семантических изменений их значений. Значение, передаваемое словосочетанием, стало связываться с третьим предметом или явлением и указывать на них. Два (и более) слов в составе словосочетания, сохраняя свои значения (которые могли полностью измениться в случае переноса значения) стали называть новый предмет. Этот феномен наблюдается в течение всей жизни языка, что ведет к еще большему обогащению его словарного запаса. Сами же словосочетания становятся составными словами и стабилизируются. Следовательно, подобное явление в языке стало неотъемлемой частью его развития и совершенствования, выступая в качестве одного из внутренних резервов, создающих возможности для выражения новых значений.

Корень, элемент, лексема, лингвистическая единица, словосочетание, сложные слова, определение, классификация.

FEATURES OF SEMANTIC CONVERGENCE IN COMPOUND WORDS AND WORD COMBINATIONS IN THE UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES

Atabay Jumaniyazov

Candidate of Philological Sciences, Professor

Urgench State University

atabeyj@yahoo.de

Allaberganova Firuza Ibraximovna

Doctoral Student

Urgench State University

firuzaaallaberganova@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0009-6873-4733>

ABSTRACT

KEY WORDS

This article presents new perspectives on the definition of phrases and compound words in Uzbek and English linguistics, analyzes the essence of semantic commonality from both philosophical and linguistic perspectives, and it is mentioned that the syntactic relationships of the components of these language units are present. An attempt has been made to compare Uzbek compound words with alternative English variants and to analyze the ratio of these interlingual semantic commonalities. Taking into account the diversity of semantic variations in them, the diversity of characteristics inherent in the nature of the languages of form and content relations, these linguistic units were divided into groups. In all languages of the world, word combinations have gradually changed into compound words due to certain semantic changes in their meaning. The meaning, understood as a word combination, began to be called and indicated by a third thing and phenomenon. Two (and more) words in the composition named a new object while preserving their meanings (which changed completely in cases of meaning transfer). As long as languages live, this phenomenal event of language continues. It further enriches the vocabulary of the language, and the combination of words becomes compound words and stabilizes. Hence, these linguistic phenomena have become a customary practice in the evolution and advancement of languages, and serve as an inherent means of enhancing the potency of language expression.

Root, element,
lexeme, linguistic unit,
word combination,
compounds, definition,
classification.

KIRISH

Ma'lumki, muloqot zamini uchun zarur bo'lgan barcha til birliklari ichida *so'z birikmalari* va *qo'shma so'zlar* o'ziga yarasha muhim rol o'ynaydi. Ular dunyoning deyarli barcha tillariga xos, soni va hajmi jihatdan flektiv (ingliz) tillarida ko'p, agglyutinatív (o'zbek) tillarda kam uchraydi. Bu ikki hodisani mazkur tillaro o'rganilishiga to'xtalinadigan bo'linsa, ularni tabiatan va mohiyatan anglash, tildagi o'rnini tushunish, ba'zan esa ularga ta'rif berishda ham hanuz turlicha (Vinokur G.O., 1939, 5) fikr - mulohazalar mavjud. Sharhlardagi anglashilmovchiliklarni milliy tilimizda oydinlashtiradigan bo'lsak, kamchilik bir tomondan qo'shma so'z va so'z birikmalari o'rtasidagi farqni aniq belgilab olinmaganligida sezilsa, ikkinchi tomondan mazkur masalaga har bir tilshunos ixtisosligiga (fonetist, grammatist, leksikolog) qarab, o'z nuqtayi nazardan turib, muammoga shaxsan (spesifik) yondashib fikr - mulohaza bildirib kelinyapti. Chunonchi, bir tilshunos nazdimizdagi til birliklarini aniqlovchi aniqlanmish, yana bittasi komponentlarning o'zaro tobe hokimligi nuqtayi nazaridan tahlil qilsa, uchinchi ularni bosh va ergash bo'laklarga bo'lib, to'rtinchisi esa o'z navbatida ularning qo'shib yoki ajratib yozilish hollarini inobatda tutadi.

ASOSIY QISM

O'zbek tilshunosligida so'z birikmalari bo'yicha qilingan talqinlarni tilshunos T.Xo'jayev astoydil o'rgangan. U mashhur rus (Axmanova O.S., Barxudarov S.G., Berezin F.M., Baskakov I.A., Lopatina L.E) va o'zbek (Abdurahmonov G., Mamajonov S., Rustamov A., Rofiyev A., Shodmonqulova D., Azizov O., Aliyev A., Ikramova F., Irisqulov M., Maxmudov N., Nurmonova A.) olimlarining fikr - mulohazalariga tayanib, diqqatga sazovor xulosalar qilgan, faqat so'z birikmasini atashda e'tirozliroq fikr bildirgan. U aytadi, "so'z birikmasi nazarda tutilgan sintaktik birlik ma'nosi va mohiyati jihatidan yoyiq tushuncha ifodasi ekan, endi uni shu asosda "so'z birikmasi" emas, balki "yoyiq tushuncha ifodasi" deb atashni lozim topdik" (Xo'jayev T., 2005). Nazarimizda so'z birikmalari nomini o'zgartirish uchun tavsiya qilinayotgan bu atama ham e'tirozlidir. Zero atamalar (terminlar) muayyan qo'llanilish chegarasi bilan boshqa nomlanishlardan farq qiladi. Ularning

qoʻllanilish oʻrni va haddi bor. “Yoyiq tushuncha ifodasi” atamasi esa bir qarashdayoq qiziquvchini bepoyonlikka eltadi, fikr chegarasini bildirmaydi. Boz ustiga “yoyiq” va “tushuncha” soʻzlari orqali bildirilayotgan maʼlumotlar ham mavhumdir. Shu maʼnoda soʻz birikmalari va qoʻshma soʻzlar borasida ingliz va oʻzbek tillarida bildirilayotgan nazariy fikr - mulohazalar oʻzlarining nomlanishi va mohiyatlari jihatidan hanuzgacha baxsli boʻlib kelmoqda. Qoʻshma soʻzlarning imlosi (qoʻshib va ajratib yozish) boʻyicha ingliz va oʻzbek tillarida bir xil bildirilib kelinayotgan oʻta loqayd (qoʻshma soʻzlar ham qoʻshib ham ajratib yoziladi) fikr esa, nafaqat yozilish qoidalariga putur yetkazadi, balki muloqotda fikr almashinuvida ham muayyan anglashilmovchiliklar keltirib chiqaradi. Bu borada biz shaxsiy (ijobiy va eʼtirozli) fikrlarimizni mazkur muammoni oʻrganish jarayonida nashr qildirgan ilmiy maqolalar va magistrlik dissertatsiyalarimizda eʼlon qilganmiz. (Jumaniyazov A., Allaberganova F., 2023)

Asosiy eʼtibor mazkur ikki til hodisasida ishtirok etuvchi soʻzlarning (komponentlarning) maʼnolari mushtaraklashuviga qaratilgan. Binobarin, soʻzlar bir-biri bilan oʻzaro maʼno munosabatga kirar ekan, ular orqali bildirilib kelayotgan maʼlumot (axborot) oʻzaro aloqador boʻladi, oʻzaro daxldor va biri - ikkinchisiz nazddagi xabarni bildir olmaydi.

Mazkur maqolamizning ingliz tilshunosligida soʻz birikmalari va qoʻshma soʻzlarning taʼrifi haqida yangicha fikr-mulohazalar bildirilib, maʼno mushtaraklashuvi mohiyatiga ham falsafiy, ham lisoniy tomondan nisbat berilib hamda mazkur til birliklari komponentlarining sintaktik ergashish munosabatlari keng oʻrganilib kelinyapti. Mazkur til birliklarining tarkibiy (yonma-yon, ketma-ket, izma-iz), tartibiy (bosh va ergash), sintaktik munosabatdagi oʻrni (tobe, hokim) aksariyat tilshunoslar tomonidan tarixan O.Jespersion, R.Lees, J.Levi, M.Ryder, H.Marchand, V.Adams, I.V.Arnold, P.H.Metthews, S.Greenbaum, S.Ulman, R.S.Ginzburg, L.Bauer, G.Kanon, E.Benvenist, A.Bodle, I.Plug, S.Scalise va I.Vogel va boshqalar oʻrganganlar. Shu maʼnoda soʻz birikmalarining grammatik kategoriyalariga qiziqish 17-asrdan boshlab kuzatilgan. Masalan ingliz olimi B. Jonson oʻzining “Grammatika” asarida “soʻz birikmasi” atamasini ishlatmasdan,

soʻz birikmasi doirasida oʻziga xos grammatik munosabatlar paydo boʻladi deb taxmin qilgan (Johnson B., 2020, 41-47). Bir asr oʻtgach, J. Braytlend soʻz birikmalarini oʻrganar ekan, grammatik munosabatlarda soʻzlar orasida sintaktik bogʻlanish boʻlishi kerak deb taʼkidlaydi (Johnson B., 2020, 41-47). Ingliz tilshunosligida koʻpgina tadqiqotchilarning qoʻshma soʻzlarga bergan taʼrif va tavsiflari asl qoʻshma soʻzning lisoniy mohiyatini anglash va tushunishda maʼlum kamchiliklar ostida tadqiq qilinganligini bildiradi. Mashhur ingliz olimi Laurie Bauer qoʻshma soʻzlar ikki yoki undan ortiq *element*larning qoʻshilishidan yasalgan leksik birlik, ularning har biri boshqa kontekstlarda mustaqil leksema sifatida kelishi mumkin, va ushbu til birligi baʼzi fonologik yoki grammatik shakllarda namoyon boʻladi deb hisoblaydi (Laurie Bauer., 2001, 695). Heidi Harley qoʻshma soʻzlar - ikki yoki undan ortiq *ildiz*ning qoʻshilishidan yasalgan birlik, deb qaragan. Rochelle Lieber qoʻshma soʻz komponentlari yaxlit birlashgan ikkita *oʻzak*dan iborat boʻlib, ushbu qoʻshma soʻzning morfosintaktik xususiyati bosh soʻzga bevosita aloqadordir, deb taʼriflaydi (Rochelle Lieber. 2004, 47). H.Marchand qoʻshma soʻzlar sintaktik shakllanish asosida *lisoniy birlik*larning aniqlovchi+aniqlanmish munosabati asosida birikishi orqali hosil boʻladi deb hisoblaydi. Uning fikricha, ikki yoki undan ortiq *soʻz*ning morfologik birikmasini qoʻshma soʻz deb atash mumkin. Taniqli tilshunos Sergio Scalise qoʻshma soʻzlar maʼlum bir *morfologik komponent*da morfologik qoidalar asosida hosil boʻladi, deb taʼriflaydi (Sergio Scalise and Irene Vogel., 2010, 4). Geert Booij qoʻshma soʻzlarning belgilovchi xususiyati shundaki, u *leksema*larning birlashuvidan iborat kattaroq soʻzlardir. Oddiy holatlarda, qoʻshma soʻz - bu ikki soʻzning birikuvidan iborat soʻzlar, bu holatda qoʻshma soʻzdagi bir soʻz ikkinchisining maʼnosini oʻzgartiradi, deya taʼrif bergan (Geert Booij., 2005, 75).

Yuqorida keltirilgan mazkur til birliklariga berilgan taʼriflarga asosan qoʻshma soʻzlarda qaysi komponent asosiy ekanligi haqida yakdil xulosaga kelinmagan, chunki turli mualliflar *oʻzak*, *ildiz*, *leksema*, *element* va *soʻz* kabi turli til birliklarni taklif qilishadi. Bundan tashqari, "oʻzak" turli tillarda turlicha tushuniladi (masalan, ingliz tilida oʻzaklar odatda mustaqil shakl boʻlsa, yunon tilida

ular bogʻlangan shakllardir). Bundan tashqari, baʼzi tillarda soʻzlar odatda monomorfemik, boshqalarida esa ikki-yoki pluramorfemik boʻlishi mumkin.

Ingliz tilida qoʻshma soʻzlarni guruhlariga boʻlib oʻrganish xususiyatlarni britaniyalik olim Laurence James Bauer, Antonietta Bisetto va Sergio Scaliselar taʼlimotlariga asosan tasniflashni lozim topdik. Tilshunos James Bauer qoʻshma soʻzlar komponentlari oʻrtasida turli semantik va sintaktik munosabatlarni tahlil qila turib, ularni quyidagi toʻrtta guruhga boʻladi (Bauer Laurie., 2004, 1-14):

1. Endosentrik qoʻshma otlar. Bunday qoʻshma soʻzlar oʻzaro maʼno munosabatiga kirishganda, ularning ikkinchi komponenti hokim (aniqlanmish), birinchi komponenti esa tobelik (aniqlovchi) vazifasini bajaradi. Masalan: *beehive* – *asalari uyasi*, *armchair* – *kreslo*.


2. Ekzosentrik qoʻshma otlar (yoki ular uchun sanskritcha “bahuvrihi” atamasi ishlatiladi). Bunday qoʻshma otlar maʼno munosabatida hokimlik va tobelik aniq ifodalanmaydi, komponentlar metaforik yoki metonimik xususiyat kasb etadi va koʻchma maʼnoda qoʻllaniladi. Masalan: *skinheads* – *taqirboshlar*.

3. Qoʻshma soʻzning tarkibiy qismlari gap maʼnosini beradi. Masalan: *maidservant* – *xizmatkor ayol*, *choʻri*.

4. Ayrim qoʻshma soʻzlarda tarkibiy komponentlararo grammatik yoki semantik jihatdan oʻzaro daxldorlik yoʻq. Bunday qoʻshma otlar qoʻshma soʻz yoki sanskritcha “dvandva” termini ostida oʻrganiladi. Masalan: *poet-translator* – *shoir tarjimon*.

Navbatdagi tilshunoslar Antonietta Bisetto va Sergio Scaliselar qoʻshma soʻzlarning juda ham sodda taʼrifga asoslangan yangi klassifikatsiyasini taklif qilishgan. Ularning nazarida qoʻshma soʻzlarning eng ahamiyatga molik jihati shundaki, uning ikkala tarkibiy qismi ham oʻzaro grammatik aloqaga kirishadi, ammo bu munosabat bir qaraganda yaqqol sezilmaydi. Misol uchun, “apron string” boʻladimi yoki “string of the apron” boʻladimi? Soʻz tarkibi almashuvi hisobga olinmasa, berilayotgan maʼlumot deyarli bir xil. Ular bu kriteriyaga asoslangan holda qoʻshma soʻzlarning kutilmagan va muayyan maʼnoda turgʻun klassifikatsiyasini taklif qilishadi. Qoʻshma soʻzlar tarkibiy qismlari bir-birlari

bilan asosan grammatik munosabatga kirishadi va ular shaklan sintaktik qurilma ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Bunda qismlari bir-biriga tobe munosabatda bo‘lgan, o‘zaro bir-biri bilan teng bo‘lgan va biri ikkinchisini aniqlab kelgan qo‘shma so‘zlar tushuniladi. Yuqoridagi fikrlarga tayangan holda, ular qo‘shma so‘zlar klassifikatsiyasining quyidagi ko‘rinishini tavsiya qilishadi (Antonietta Bisetto and Sergio Scalise., 2005, 1-14):



Subordinate – qismlari tobe-hokim munosabatda bo‘lgan; *attributive* – aniqlovchili; *coordinate* – teng munosabatda bo‘lgan qo‘shma so‘zlar.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, tobe-hokimlik munosabati qo‘shma so‘z tarkibida asosiy qism bo‘lmagan taqdirda ham qo‘llaniladi. Aniqlovchili qo‘shma so‘zlar sifat va ot so‘z turkumidagi so‘zlardan tuzilgan bo‘lishi ham mumkin. Masalan, “*blue cheese*”. Ba’zan asosdagi metaforik ma’noni bildirish uchun sifat o‘rnida ot ham qo‘llaniladi, jumladan, “*snail mail, swordfish*” kabi. Agar qo‘shma so‘zlarning tarkibida aniqlovchi bo‘lsa, ular tobe-hokimlik munosabatiga kirishadi va “subordinate” qo‘shma so‘zlar turiga mansub bo‘ladi, ya’ni ular biri ikkinchisiga tobe bo‘lib keladi. Masalan, “*taxi driver*” qo‘shma so‘zini oladigan bo‘lsak, bunda “*taxi*” so‘zi mazkur qo‘shma so‘z tarkibidagi otlashgan fe’lning aniqlovchisi

hisoblanadi. Biz shunga o'xshagan holatni "*apron string*" (etakning bog'ichi) misolida ham kuzatishimiz mumkin bo'ladi. Biz bu qo'shma so'zni turlicha talqin qilishimiz mumkin: "*string of an apron*" – etakning bog'ichi, "*string on an apron*" – etakning ustidagi bog'ichi, "*string in an apron*" – etakning ichidagi bog'ichi va h.k. Shunday bo'lsa ham, ikkala tarkibiy qism o'rtasidagi munosabatni aniqlovchi so'z muayyan ma'noda to'ldirib keladi, biroq *etak bog'ichining* xususiyati va bajarib kelayotgan vazifasi hamda qo'llanilish o'rnini muloqot ishtirokchilari idrokiga havola qilinadi. Bu holatda esa "bog'ich ishlatilgan etak" suhbat ishtirokchilariga avvaldan ma'lum, tanish, hech bo'lmaganda, ishora qilish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak.

Endi teng bog'langan qo'shma so'zlarga to'xtaladigan bo'lsak, Antonietta Bisetto va Sergio Scaliselarning fikricha, ularga ko'pincha "and" (ya'ni "va") bog'lovchisi yordamida bog'langan qo'shma so'zlar kiradi. Bunday so'zlarning yasalishi qadimgi roman va german tillariga borib taqaladi. Semantik nuqtayi nazardan olib qaraydigan bo'lsak, mazkur qo'shma so'zlarga ikki asosga ega so'zlar "poet painter" (shoir rassom) sifatida qaraladi. Bu guruhlariga mansub bo'lgan qo'shma so'zlarga ingliz tilida bir paytning o'zida ham endosentrik, ham ekzosentrik leksemalar sifatida qaraladi. Yuqorida zikr qilingan fikrlarni quyidagi oltita guruhga bo'lingan holda o'rganish mumkin. Biroq quyida keltirilgan misollar orasida qo'shma so'zlarning hamma turlari mavjud emas (masalan, attributiv endosentrik qo'shma so'zlar ustunida asosiy qismga ega bo'lmagan so'z yo'q). Keyingi misollar quyidagicha ko'rinish kasb etadi. Misol uchun, "*love story*" va "*loudmouth*" misollarini taqqoslaydigan bo'lsak, ularning ikkalasi ham biri ikkinchisiga tobe munosabatda deb to'liq ayta olmaymiz, chunki "*love story*" so'zi "sevgi tarixi" degani bo'lib, unda *love* so'zi *story* so'ziga tobe, ammo "*loudmouth*" misolida garchi "*mouth*" so'zi asos bo'lsa ham, ularning orasida qisman tobelik bor va bu so'z uchinchi bir yangi ma'noni bildiradi: uning ostida "katta ketib gapiradigan odam, maqtanchoq kishi" tushuniladi.

Endi o'zbek tilida uchrovchi "oq" komponentli qo'shma so'zlarning ingliz tilidagi muqobil variantlari bilan qiyoslaymiz va ushbu tillararo ma'no

mushtaraklashuvi nisbatini tahlil qilishga harakat qilamiz. Ulardagi ma'no variantdoshlikning xilma-xilligini, shakl va mazmun munosabatlarining tillarning tabiatiga xos xususiyatlari rang-barangligini nazarda tutgan holda ularni quyidagi guruhlarga ajratib tasniflash mumkin:

1-guruh; Har ikkala tilda ham oq komponenti mavjud: *Oqsaroy - The White House*. Ko'rinib turibdiki mazkur til birliklari har ikkala tilda ham "oq" komponenti uchrayapti va ular ikkala mamlakatda ham uchinchi bir narsa-hodisani nomlaydi, "qarorgoh" ma'nosida qo'llaniladi. Ma'no mushtaraklashuvi bilvosita. Atoqli ot (joy nomlari) bo'lishgani sabab ingliz va o'zbek imlo qoidalariga asosan bosh harf bilan yozilgan. Jonli tildan misollar keltiramiz.

Ingliz tili: *"The White House, is the official residence and workplace of the President of the United States."*

O'zbek tili: *"Oqsaroy-Toshkentdagi zamonaviy me'moriy inshoot; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorgohi."*

2-guruh; o'zbek tilida qo'shma so'zdagi "oq" komponenti, ingliz tilida boshqa so'z bilan almashadi. Bunga *oqsoqol, oqsoch*: qo'shma so'zlarini kiritish mumkin. Ma'lumki, *oqsoqol* birikmasidagi *oq* o'zbek tilida *yoshi ulug', hayot tarjibasiga ega, donishmand kishi* ma'nosida qo'llaniladi, bevosita mushtaraklashuv bilvositalashadi, uchinchi bir kimsa nomlaniladi. Ingliz tilida mazkur so'zga aytilish va yozilish jihatdan muqobil birikma (*white man*) yo'q, u beradigan ma'noni va tushunchani anglash uchun mutlaqo boshqa so'zlar orqali ifodalangan birikma (*wise old man*) variantini nomlashimiz mumkin. Ko'rinib turibdiki bu yerda "oq" / "white" komponenti qo'llanilmayapti, bu so'z o'rnida *dono* (*wise*) va *yoshi ulug'* (*old*) so'zlari ishlatilishini ko'rish mumkin. Shuni ta'kidlash joizki, *oqsoqol* so'zining o'zbek tilida mansab (*Mahallani obod etish, tinchlik xotirjamlikni ta'minlash, katta-kichik tadbirlarga bosh-qosh bo'lish mahalla oqsoqolining zimmasida*) va uyushma (*Hay'at a'zolari yigirma kun qishloq oqsoqolligida turib, tekshuruv o'tkazdilar.*) ma'nosi ham mavjud. Bundan tashqari kundalik hayotimizda *oqsoqollar uyushmasi raisiga* jumhuriyatimizning ayrim hududlarida "bosh oqsoqol" deb ham aytiladi. Ingliz tilida esa milliy

tilimizga xos yuqorida nomlangan soʻz birikmalariga variantdoshlik qila oladigan muqobil til birliklari yoʻq.

3-guruh; Bu guruhga oʻzbek tilidagi maʼnolari bevosita mushtaraklashgan *oqqush, oqkaptar, oqilon, oqayiq, oqquyruq, oqqovun, oqurugʻ, oqgurvak, oqmayiz* va bilvosita mushtaraklashgan *oqsuyak va oqkoʻngil* soʻzlarini kiritish mumkin. Bu qoʻshma soʻzlarning ingliz tilidagi variantlarini tahlil qilish jarayonida shunga guvoh boʻldikki, yuqoridagi har ikkala guruhdan farqli oʻlaroq ular tarkibida na “oq”/”white” komponentini va na bu soʻz oʻrnini bosadigan boshqa biron til birligini uchratmadik. Darhaqiqat, *oqqush* qoʻshma soʻzi oʻrniga sodda soʻz- *swan* ishlatiladi, *oqsuyak* qoʻshma soʻzining tarjimada muqobili sifatida esa *aristocrat* qoʻshma soʻzi qoʻllaniladi. Koʻrinib turibdiki, *oqqush* qoʻshma soʻzi ostida oʻzbek xalqi *qushning oq turi, oqsuyak* til birligi ostida esa *aslzoda (oqsuyak)* insonlarni nazarda tutadi. Oqkoʻngil soʻzida ham xuddi shu holatni kuzatishimiz mumkin. Oʻzbek tilidagi oqkoʻngil qoʻshma soʻzi ostida *inson shaxsi* nazarda tutilib, bunda *mehribon, sofdil, koʻnglida gina saqlamaydigan inson* tushuniladi. Ingliz tilida xuddi shu maʼnoni beruvchi muqobil variant sifatida *compassionate* soʻzidan foydalaniladi. Oʻzbek tilida oqkoʻngil soʻzi ostida bir (ayrim) insonga xoslik tushunilsa, ingliz tilidagi *compassionate* til birligida oqkoʻngillik ikkinchi (yoki koʻplagan) insonlarga nazdda turgan shaxs tomonidan izhor qilinayotganligiga ishora sifatida anglashiladi.\

4-guruh; Bu guruhga oʻzbek tilida “oq” komponent bilan uchraydigan ayrim qoʻshma soʻzlarni kiritdikki, ularda “oq” soʻzi koʻchma maʼno kashf qilib, mazkur komponent ishtirokida nomlanilayotgan shaxslarga

a) *duoi-xayr* – “Mezbon mehmonni uyiga kuzatayotib unga oqyoʻl tiladi”. Mazkur gapning mazmunidan anglashilayaptiki, mezbon mehmonning yoʻlini behavotir, bexatar kechishini, oʻzini esa omon-eson manzilga yetib borishini tilayapti. Ingliz tilida variantdor soʻz topilmadi.

b) *duoibad*- “Ota oʻgʻlining ketma-ket nojoʻya harakatlaridan gʻazablanib, uni oqqadar qildi”. Gapdan anglashilayaptiki, yomon qilmishlari, bilib turib qilgan gunoh ishlari oqibatida muayyan farzand muayyan ota tomonidan

la'natlangan va o'z tug'ilib o'sgan uyidan manguga quvilgan. Bir qo'shma so'z bilan otaning farzandiga yomonlik istab qilgan xudo oldidagi iltijosi tushunilyapti. Mazkur birikmaga muqobil variant ingliz tilida topilmadi.

c) *oqqon, oqkasal* - "Oqqon bemorligini oqkasal bilan 'yo'q". Misoldan ko'rinib turibdiki, yuqoridagi tashxisni qo'yayotgan tabib nutqida evfimistik vositalardan foydalanib, bemorlar qo'rquvni ovutib, kasallik daxshatni yupantirib gapirayapti. Zero "oqqon" so'zi saraton, "oqkasal" iborasi esa pes-moxov kabi jirkanch kasallikni yumshoq, odatiy so'zlar bilan nomlayapti.

d) *oqsut, oqquloq* - bu ikkala qo'shma so'zning "oqsut" shaklida ma'noning yanada ijobiylashgani (Oqsut berib tarbiyalagan onamga raxmat!)ni ko'ramiz. "Oqsut" qo'shma so'zi orqali poklik va farzand uchun muqaddas ozuqa inobatda turibdi. Endi "oqquloq" qo'shma so'zi salbiy ma'noga ega bo'lib, u orqali xalqimizni rus bosqinchilarga nafrati ifodalanadi. Bu so'z salbiy ma'noga ega bo'lib, mahalliy xalq tomonidan ruslarga berilgan masxaromuz laqabdir. Ular yerli xalq orasida so'zlashuv tilida nafratomuz ravishda hanuzgacha "Ivan" yoki "oqquloq" deb nomlaniladi.

e) *Oqsil, oqlik* kabi qo'shma so'zlar borki, ularning salbiy yoki ijobiy (sema, konnotativlik) ma'nolari ular qo'llanilayotgan muhit, marosim yoki mavzulariga bog'liq. Chunonchi, "oqlik" til birligi to'y-marosimlarida yangi, toza, ochiq rangli kiyim, "*Mana bu xamir uchidan patir, hojim: oqlik, quda bo'lmoqchimiz*" ma'nosini beradi va o'likni ko'mish marosimlarida esa bu so'z ostida "*kafan*" anglashiladi: "*Marhum uchun oqlikni bilgan kishi odam yirtsin*". Oqlikni ro'zg'or hayotida sutdan qatiq qilish, sutni uyitish uchun *tomizlik* ma'nolari ham bor: "Sut bormi?- Bor, lekin pishirib, oqlik solib qo'ygan edim.

Oqsil qo'shma so'zi esa salomatlik mavzusi haqida gap getsa, hayvon va o'simliklar organizmining eng muhim tarkibiy qismi, tarkibida azot bo'lgan muhim murakkab moddani bildiradi. Masalan, "*Oqsil hujayralar tuzilishi uchun muhim moddadir*" yoki "*Ayol tuxumni chaqdi. Yutoqib oqsilni so'rdi*" Gap salomatlik haqida ketsa, bu so'z salbiy ma'noga ega bo'lib, chorva mollari va cho'chqalarda bo'ladigan shiddatli o'tadigan yuqimli kasallikni bildiradi: "Sog'in sigirlarning

anchasi oqsil kasaliga chalindi”. Analog misollar va ularning taqlidiy qo‘llanilishi bizga ingliz tilida uchramadi.

XULOSA

Maqolamiz nihoyasida shu narsani ta’kidlashni istar edikki, so‘z birikmalari dunyoning barcha tillarida tarixiy-tadrijiy ravishda ma’nolarida kechgan muayyan semantik o‘zgarishlar natijasida asta-sekin qo‘shma so‘zlarga aylanishgan. So‘z birikmasi sifatida anglashilayotgan ma’no uchinchi bir narsa va hodisani atab hamda ko‘rsata boshlagan. Tarkibdagi ikki (va undan ortiq) so‘z o‘z ma’nolarini saqlagan (ma’no ko‘chgan hollarda to‘la o‘zgarib) holda yangi bir predmetni nomlashgan. Tillar yashar ekan tilning bu fenomenal hodisasi bardavom davom etaveradi. Tilning lug‘at tarkibini yanada boyitadi va so‘z birikmalari qo‘shma so‘zga aylanib barqarorlashadi. Binobarin, tildagi bunday voqeliklar tillar taraqqiyoti va rivojining an’anasiga aylangan va til qudrati ifodasi oshishining ichki imkoniyatlaridan biridir. Ushbu fikr-mulohazalar ostida, tabiiyki, imloning (til birliklarining yozilishi) ayniqsa yozma nutqda juda muhim rolining tushunilishi inobatda turadi. Zero, xatoli imlo (tovushlarning harfiy ko‘chirilishi, so‘zlarning yozilishi, tinish belgilar) fikrni chalg‘itadi, noto‘g‘ri xulosaga olib keladi va hukm nohaq chiqadi. Shu ma’noda tilga qiziquvchilar va tilshunoslar(ikkala til egalari)ga tavsiyamiz borki, u ham bo‘lsa “Qo‘shma so‘zlar doimo qo‘shib yozilsin. Qo‘shma so‘z nomi ostida faqat qo‘shma so‘zlar tushunilsin. Mabodo, so‘zlar ajratib yozilgan holda uchrasa, ular so‘z birikmalari qatoriga kirgizilsin va shunga asosan ma’nan tushunilsin hamda morfologik, sintaktik, semantik tahlil qilinsin”.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Винокур Г.О. Некоторых явлениях словообразования в русской технической терминологии/Труды МИФЫ.Т.В.1939.-С.5.
2. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. Москва, 2004 - С.11-12.
3. Хо‘jayev Т. So‘z birikmasi talqiniga qisqacha sharh. Xorijiy filologiya. til • adabiyot • ta’lim ilmiy–uslubiy jurnal 3/16/2005.

4. Doniyorov R. O‘zbek tili texnik terminologiyasining ayrim masalalari.- Toshkent, 1977. B. 18-21.
5. Мадалиев. Б. Сложные слова в современном узбекском языке: Автореферат дис. ... канд. филол. наук / Акад. наук Узбек. А. С. Пушкина. - Ташкент, 1956. - 15 с.
6. Raxmatullayev Sh., Hojiyev A. Qo‘shma so‘zlarning imlo qoidalari va lug‘ati.- Toshkent, 1961.
7. Hojiyev A. O‘zbek tilida qo‘shma, juft va takroriy so‘zlar.-Toshkent, 1963.
8. Madaliyev B. Hozirgi o‘zbek tilida qo‘shma so‘zlar. - Toshkent, 1966.
9. Mamatov N. O‘zbek tilida qo‘shma so‘zlar. - Toshkent, 1982.
10. G‘ulomov A. O‘zbek tilida so‘z yasash yo‘llari haqida//A.S.Pushkin nomidagi Til va adabiyot instituti asarlari. Birinchi kitob. - Toshkent, 1949.
11. Jumaniyazov A, Povonova N, Allaberganova F, Urantayeva N. O‘zbek tilida qo‘shma so‘zlar yozilishi yoxud imlosi haqida. O‘zbekistonda ilm - fan va ta’lim. 2-son 24 aprel 2020.
12. Jumaniyazov A, Povonova N, Allaberganova F. Qo‘shma so‘zlar imlosi. Ta’lim tizimida chet tillarni o‘rganishning zamonaviy muammolari va istiqbollari. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. 5-6 mart.2020.
13. Jumaniyazov A., Allaberganova F. So‘z birikmalarining qo‘shma so‘zlarga aylanish tendensiyalari. Ilm sarchashmalari. Ilmiy nazariy, metodik jurnal. 12/2/2023.
14. Johnson B. The English Grammar. URL: <https://play.google.com/books/reader?id=-9FIAAAAcAAJ&hl=ru&pg=GBS.PA31>. 15.01.2020. 41-47 p.
15. J. Brightland Grammar of the English tongue. URL: <https://archive.org/details/grammarofenglish00brig/page/n3/mode/2up>. 15.01.2020. 131-150 p.
15. Laurie B. Compounding. In Haspelmath, Martin et al. (eds.): Language universals and language typology. Berlin/New York: De Gruyter. 2001. P. 695.

16. Sergio S., Irene V. Cross-Disciplinary Issues in Compounding. Amsterdam studies in the theory and history of linguistic science. Series IV, Current Issues in Linguistic Theory, ISSN 0304-0763; V. 311. 2010. P.4.
17. Booij G. The grammar of words. Oxford University Press Inc. New York. 2005. P. 75.
18. Laurie B. English Exocentric & Endocentric Compound. – Cambridge: Cambridge University Press, 2004. – Pp.1-14.
19. Anarbayev O.R, Husainov E.Y, Ashurova Sh.A, Satvaldiyeva S.D, Ibragimov H.I. Linguistic features of compound words in English and Uzbek languages. – European Journal of Molecular and Clinic Medicine Volume 7, Issue 2, 2020. – P. 4.
20. Antonietta B., Sergio S. The classification of compounds. – *Lingue E Linguaggio*, 2005. – Pp.1-14.

REFERENCES

1. Vinokur G.O. Some word formation phenomena in Russian technical terminology/Trudi 1939.-P.5
2. Ahmanova O.S. Dictionary of linguistic terms. Moscow, 2004 - P.11-12.
3. Khodjaev T. A brief overview of the interpretation of the word combination. Foreign language, literature, educational, scientific and methodological journal, 3/16/2005.
4. Doniyorov R. Some issues of technical terminology of the Uzbek language.- Tashkent, 1977. P. 18-21
5. Madaliyev B. Compound words in the modern Uzbek language: Abstract of the dissertation of Candidate of Philological Sciences / Academician of Sciences Uzbek. A. S. Pushkin. - Tashkent, 1956. - 15 p.
6. Rakhmatullaev Sh., Khojiev A. Orthographic rules and dictionary of compound words.-Tashkent, 1961.
7. Khojiev A. Compound, paired and repetitive words in the Uzbek language. Tashkent, 1966
8. Madaliev B. Compound words in the modern Uzbek language. - Tashkent, 1966.

9. Mamatov N. Compound words in the Uzbek language. - Tashkent, 1982.
10. Gulyamov A. On the Ways of Word Formation in the Uzbek Language // Works of the A.S. Pushkin Institute of Language and Literature. Book One. - Tashkent, 1949.
11. Jumaniyazov A, Povonova N, Allaberganova F, Urantaeva N. On the writing or orthography of compound words in the Uzbek language. Science and education in Uzbekistan. No. 2 April 24, 2020.
12. Jumaniyazov A, Povonova N, Allaberganova F. Orthography of compound words. Modern problems and prospects for foreign language learning in the education system. International scientific and practical conference. March 5-6, 2020.
13. Jumaniyazov A., Allaberganova F. Trends in the changing of word combination into compound words. Scientific sources. Scientific-theoretical, methodological journal. February 12, 2023
14. Johnson B. The English Grammar. URL: <https://play.google.com/books/reader?id=-9FIAAAACAAJ&hl=ru&pg=GBS.PA31>. 15.01.2020. 41-47 p.
15. J. Brightland Grammar of the English tongue. URL: <https://archive.org/details/grammarofenglish00brig/page/n3/mode/2up>. 15.01.2020. 131-150 p.
15. Laurie B. Compounding. In Haspelmath, Martin et al. (eds.): Language universals and language typology. Berlin/New York: De Gruyter. 2001. P. 695.
16. Sergio S., Irene V. Cross-Disciplinary Issues in Compounding. Amsterdam studies in the theory and history of linguistic science. Series IV, Current Issues in Linguistic Theory, ISSN 0304-0763; V. 311. 2010. P.4.
17. Booij G. The grammar of words. Oxford University Press Inc. New York. 2005. P. 75.
18. Bauer L. English Exocentric & Endocentric Compound. – Cambridge: Cambridge University Press, 2004. – Pp.1-14.

19. Anarbayev O.R, Husainov E.Y, Ashurova Sh.A, Satvaldiyeva S.D, Ibragimov H.I. Linguistic features of compound words in English and Uzbek languages. – European journal of Molecular and Clinic Medicine Volume 7, Issue 2, 2020. – P. 4.
20. Antonietta B., Sergio S. The classification of compounds. – *Lingue E Linguaggio*, 2005. – Pp.1-14.